



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

Mening dunyom befarqlik  
ummonida suzib yuruvchi  
kichik og'riq oroli!

ZIGMUND FREYD  
(1856-1939)

# 2022

MAY  
№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)



[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
23-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-23**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-23**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова МеҳриҲасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

<b>1. Ramazonov Akmaljon Xojimurodovich, Navruzov Rahmat Mahmudovich, Ibragimov Oyatillo Shokirjon o‘g‘li</b>	
<b>QISHLOQ XO‘JALIGIDA MASOFADAN ZONDLASH TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASH.....</b>	<b>7</b>



## АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

### QISHLOQ XO'JALIGIDA MASOFADAN ZONDLASH TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH

**Ramazonov Akmaljon Xojimurodovich**

O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik  
o'quv markazi muhandis-savyor qo'shinlari,  
kimyoviy himoya va topogeodezik ta'minot  
sikli o'qituvchisi

**Navruzov Rahmat Mahmudovich**

O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik  
o'quv markazi katta o'qituvchisi

**Ibragimov Oyatillo Shokirjon o'g'li**

(TIQXMMI) Milliy Tadqiqot Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lgan masofadan zondlash haqida umumiy ma'lumot va masofadan zondlash jarayonida olingen ma'lumotlarni takomillashtirish va ulardan samarali foydalanib, turli xildagi fazoviy vositalar orqali yerning yuza qismini kuzatish ma'lumotlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** masofadan zondlash ma'lumotlari, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi yerlari monitoring, oziq-ovqat, jahon bozori, geodeziya, xaritalash, yer va okean yuzasi, atmosfera qatlamlari, ERDAS Imagine, ESRI, MapInfo va ERMapper, Sensorlar oddiy fotoapparatlar.

Masofadan zondlash inglizcha Remote Sensing » so'zlaridan olingen bo'lib , Remote masofadan yoki uzoqdan, Sensing ma'lumot olmoq yoki kuzatmoq degan ma'noni anglatadi. Masofadan zondlash masofadan turib obyektlar to'g'risida ma'lumotlar olish ma'nosini bildiradi . Besh xil his etish tuyg'ularidan uchtasini biz masofadan zondlashda ishlatalishimiz mumkin:

1. Stadionda futbol musobaqasini tomosha qilish (ko'rish hissi)
2. Tandirdan yangi uzelgan somsani hidlash (hid bilish hissi).
3. Telefon qo'ng'iroq'ini eshitish (eshitish hissi).

Masofadan zondlash tadqiq qilinayotgan obyekty yoki maydon dan uzoqda sodir bo'ladi. Qiziqarlisi shundaki, masofadan zondlash uzoqligi aniq belgilanmagan, uzoqlik obyekt yoki maydonga nisbatan 1 m , 1000 m yoki 1 million metr bo'lishi mumkin. Aslida, amaliyotda butun astronomiya masofadan zondlashga asoslangan. Juda ko'p innovatsion masofadan zondlash tizimlari, ko'rish va raqamli suratlarni qayta ishlash usullari dastlab boshqa planetalarning landshaftlarini, ya'ni Oy, Mars, Saturn, Yupiter va boshqalarni masofadan zondlash uchun yaratilgan. Masofadan zondlash texnologiyalari ichki bo'shliqlarni tahlil qilishda ham ishlatilishi mumkin, masalan, elektron mikroskop va uning birlashgan uskunalari terining, ko'zning yoki boshqa organning juda kichkina obyektlarini suratga olishda ishlatiladi. Shuningdek, rentgen nurlari qurilmasi tana ichidagi suyak va boshqa a'zolarni tekshirish uchun ishlatiladigan masofadan zondlash asbobi hisoblanadi. Bunday holatlarda esa zondlash masofasi 1 metr dan ham kam bo'ladi.


Yurtimizning bundanda gullab yashnashi va rivojlanishi uchun, eng avvalo, yashash sharoitlarimizni yaxshilash uchun intilishimiz va fan-tehnika yutuqlari, zamonaviy usullardan samarali foydalanishni takomillashtirishimiz zarurdir. Ayni paytda yildan-yilga yoki har daqiqada yangidan yangi texnologiyalar kirib kelmoqda desak, aslo adashmagan bo'lamiz. Bularidan biri masofadan zondlash texnologiyasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiy tomondan kuchli mamlakatlarning mustahkam ishlab chiqarish vositasi yoki qoloq va ko'p aholiga ega mamlakatlarning yashash vositasidir, u deyarli barcha millatlarning iqtisodiyotida juda katta rol o'ynaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamma uchun muhim ahamiyatga ega



hamda oziq-ovqat mahsulotlarini iqtisodiy tejamkorlik bilan ishlab chiqarish har bir fermer, fermerlar uyushmasi raisi va hududiy qishloq xo'jalik agentliklarining eng oliy maqsadidir. Fermer xo'jaligining samaradorligi hamda mahsulot to'g'risida bilim va ma'lumotga ega bo'lishi fermerlik faoliyatining strategiyasidir. Masofadan zondlash texnologiyasi ekinlarning sog'lomligi, parazitlarning tarqalishi, zararning ko'payishi, hosildorlik imkoniyatlari va tuproq sharoitlarini aniqlashda katta yordam beradi. Mahsulot brokerlari ham fermerlarning mahsulotlari bilan qiziqadi, chunki mahsulotning sifat va miqdori barcha mahsulotning jahon bozoridagi narxini baholaydi. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari va aerosuratlar ekinlarni sinflashtirish, ularning sog'lomligi va yaroqlilagini tekshirish hamda fermerlik faoliyatini monitoring qilishda kartalashtirish quroli sifatida foydalaniladi.

Masofadan zondlashning afzallikkleri shundan iboratki, yer monitoringi ma'lumotlari masofadan zondlash yordamida olingan zamонави и yetarli darajada aniq qishloq xo'jaligi erlari xaritalari bilan birlashtirilganda monitoring natijalari ancha ob'ektiv va ishonchli bo'ladi.

Masofaviy zondlash ma'lumotlaridan foydalanish qishloq xo'jaligining yangi texnologiyalarini ishlab chiqish uchun aniq dehqonchilikning ajralmas qismi hisoblanadi. Masofadan zondlash o'simlik qoplamining holatini nazorat qilishni, ekinlarning ezilgan holatini zonalarini aniqlashni ta'minlaydi. Natijada, masofaviy zondlash yordamida olingan ma'lumotlar unga o'z vaqtida javob berish uchun ajralmas hisoblanadi.



Masofadan zondlash yordamida ekilgan ekin turi va uning maydonini aniqlaydigan tasvirlarni olish mumkin. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, bunday muammolarni hal qilish uchun qishloq xo'jaligi ekinlarining hayotiy jarayonlarining rivojlanishini monitoring qilish maqsadida o'rganilayotgan hududda tizimli ravishda tadqiqot ishlarini olib borish kerak. Masalan, vegetatsiya davrida o'simliklarning spektral yorqinligidagi farqlardan, shuningdek NDVI indeksidan foydalangan holda masofadan zondlash tasvirlari (hatto past piksellar soni) asosida (ijobiq qiymatlarni oladi va yashil fitomasasi hajmiga bog'liq). Dalalar tasvirining ohangiga ko'ra, ularning agrotexnik holati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin va keyinchalik, qishlashdan keyin turli ekinlarning holatini sog'lom va o'lik o'simliklar rangidagi farqlar bilan baholash mumkin.

Masofadan zondlash asosan qishloq xo'jaligida, geodeziyada, xaritalashda, yer va okean yuzasini, shuningdek atmosfera qatlamlarini kuzatishda qo'llaniladi.

Sun'iy yo'ldoshlar yordamida alohida dalalar, viloyatlar va tumanlarning ma'lum bir siklilikdagi tasvirlarini olish mumkin. Foydalanuvchilar yerning holati, jumladan, ekinlarni aniqlash, ekin maydonlarini aniqlash va ekin holati haqida qimmatli ma'lumotlarni olishlari mumkin. Sun'iy



yo’ldosh ma’lumotlari turli darajadagi dehqonchilik natijalarini to’g’ri boshqarish va monitoring qilish uchun ishlatiladi. Ushbu ma’lumotlar fermer xo’jaligini optimallashtirish va texnik operatsiyalarni kosmik boshqaruv uchun ishlatilishi mumkin. Tasvirlar ekinlarning joylashishini va yerlarning qurib ketish darajasini aniqlashga yordam beradi va keyinchalik qishloq xo’jaligi kimyoviy vositalardan foydalanishni mahalliy darajada optimallashtirish uchun davolash rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

**Masofaviy zondlashning asosiy qishloq xo’jaligida qo’llanilishi  
quyidagilardan iborat:**



So’nggi yillarda Yerni masofadan zondlash (ERS) va geoinformatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi va tarqalishi bilan ajralib turadi.

Kosmik tasvirlar turli xil faoliyat sohalarini:	kartografiya
	shahar boshqarmasi
	o’rmon va qishloq xo’jaligi
	suv xo’jaligi
	neft va gaz qazib olish va tashish infratuzilmasi ob’ektlarini inventarizatsiya qilish va monitoringini o’tkazish
	atrof-muhitni baholash muammolarini hal qilish uchun ma’lumot manbai sifatida faol foydalilaniladi



Masofadan zondlash falsafasini uch xil bo'limga ajratish mumkin : birinchidan, bu qanday texnologiya ; ikkinchidan , bu texnologiya nima uchun va qanday qilib rivojlanmoqda ; uchinchidan , texnologiya nima maqsadda ishlatiladi va qanday imkoniyatlari mavjud.


Masofadan zondlashning tarixi XIX asrning oxirlaridan, havo sharlari va varraklar yordamida fotoapparatlarning havoga chiqazilganligidan boshlangan. Samolyotlarning yaratilishi keyinchalik havodan turib suratga olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Birinchi jahon urushi davrida masofadan zondlash ilk bor axborot va ma'lumotlar olish usuli sifatida ishlatilgan. Masofadan zondlash tarixi bu sohaning nima uchun rivojlanganligi va hozirgi kungacha taraqqiy etayotganligining mantiqiy asosini ko'rsatib beradi. Dastlab va hozirgi kungacha suratga olish voqealar haqida o'z vaqtida ma'lumot olishning eng qiziqarli va ajoyib usuli hisoblanib kelgan. Sodir bo'lgan hodisalarini yozib olish qo'l bilan chizishga qaraganda realroq va ma'lumotlarni ancha tez yig'ish mumkin, shuning uchun havodan suratga olish jadal rivojlanib ketgan. Dastavval kichikroq joy tajribadan o'tkazilgan, keyinchalik esa yerga qaraganda havodan yerning ko'rinishi butunlay boshqacha ekanligi anglab yetilgan.

Masofadan zondlash 1840 - yilda havo sharlari ixtirochilarining yangi ixtiro qilingan fotoapparatlardan foydalanib Yerni suratga tushirishidan boshlanadi. XIX asr oxirining eng yangi texnologiyasi sifatida kaptarlarga fotoapparat o'rnatilgan holda uchirib Yerni suratga olish Yevropada amalga oshirilgan. Bu uslub birinchi jahon urushida razvedka olib borishda juda kerakli quroq sifatida qo'llanilgan. Masofaviy sensorlarning fazoga chiqarilishi avtomatlashgan fotoapparatlarni Meksika, Vayt Sendsga qo'ngan German V - 2 raketasiga o'rnatib ma'lumot olishdan boshlanadi. Birinchi kosmonavt va astronavtlar yer shari atrofini aylanish davomida belgilangan regionlarni hujjatlashtirish uchun fotoapparatlardan foydalanishgan. 1960-yillarda yer yuzasining qora va oq tasvirlarini oluvchi sensorlar meteorologik sun'iy yo'ldoshlarga o'rnatilgan. 1970 - yillarda Skulab va Landsatda suratga oluvchi asboblarni uchirib masofadan zondlash amalga oshirildi .

Hozirda esa masofadan zondlash tez , aniq va yangi ma'lumotlar to'plash talab qilinadigan soha bo'lgan atrof - muhit boshqaruvida juda keng foydalanilmoqda

Masofadan zondlash - bu masofadan masofadan turib ma'lumot olishni o'rganish jarayoni yoki ma'lumotlarni yig'ishdir. Bunday tekshiruv yerga asoslangan qurilmalar (masalan, kameralar) va kemalar, samolyotlar, sun'iy yo'ldoshlar yoki boshqa kosmik qurilmalarga asoslangan sensorlar yoki kameralar orqali sodir bo'lishi mumkin. Bugungi kunda olingan ma'lumotlar asosan kompyuterlar yordamida saqlanadi va ishlov beradi. Masofadan zondlashda ishlatiladigan eng keng tarqalgan dastur ERDAS Imagine, ESRI, MapInfo va ERMapper hisoblanadi. Masofadan zondlash - tadqiq qilinayotgan ob'ekt, maydon yoki xodisa bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'Imagan asbob - uskuna yordamida olingan axborotlarni tahlil qilish orqali erishilgan ma'lumotlardir. Geofazoviy fan dunyosida masofadan zondlash, "yerni kuzatish" deb ham nomlanadi, bu esa yer yuzasiga nisbatan baland masofadan turib yerni sensorlar yordamida kuzatish degan ma'noni anglatadi. Sensorlar oddiy fotoapparatlarga o'xhash, farqi esa ular ko'rinvchi nurlarni ishlatmaydi, biroq elektromagnit spektrning boshqa diapazonlarini ya'ni, infraqizil, mikroto'lqinlar va ultrabinafsha intervallarini ishlatadi. Sensorlar juda taraqqiy etib bormoqda, ular yordamida juda katta hajmdagi maydonlarning suratlarini olish imkoniyati mavjud.

Hozirgi paytda masofadan zondlash samolyotlar orqali havodan va sun'iy yo'ldoshlar yordamida fazoviy usullardan foydalanib amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, masofadan zondlashda nafaqat fotoplyonkalar, balki raqamli fotoapparatlar, skanerlar, videolar, radar va termal sensorlar ishlatilmoqda. O'tgan zamonalarda esa masofadan zondlash elektromagnit spektrning ko'rinvchi qismini ishlatish imkoniyati bilan cheklangan, spektrning inson ko'ziga ko'rinxaydigan qismi hozirgi kunda spektral filrlar, fotoplyonkalar va boshqa turdag'i sensorlar yordamida ishlatilishi mumkin. Yerning ko'rinishi amaliyatga va hayotiy muammolarni hal etishga tadbiq etilgan, bunga misol qilib II jahon urushi davridagi havo razvedkasini keltirishimiz mumkin.



**1-rasm. Sun’iy yo’ldosh tasvirlari va masofadan zondlash ma’lumotlarini qishloq xo’jaligi kartalari uchun qo’llash**

Yerni masofadan zondlash ma’lumotlari yer landshaftlari va infratuzilmalarining xususiyatlarini xaritalash, tabiiy resurslarni boshqarish va atrof-muhit o’zgarishlarini o’rganish uchun muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Masofaviy zondlashning tematik talqinini olish va avtomatlashtirilgan yanada ilg’or texnologiyalarni yaratish tufayli yuqori aniqlikdagi sun’iy yo’ldosh tasviri materiallari yerdan foydalanish holati va dinamik o’zgarishlarini kuzatish uchun eng tezkor, ishonchli va samarali axborot manbalaridan biriga aylandi. Maqolada masofadan zondlashni amalga oshirish texnologiyasi, shuningdek, uning yer holatini o’rganishdagi ahamiyati tasvirlangan.

Hozirgi vaqtida yerdan oqilona foydalanish masalalari katta ahamiyatga ega, chunki XX asr oxiri - XXI asr boshlarida yer o’zgartirishlar natijasida mamlakatimizda sezilarli o’zgarishlar yuz berdi. Yerlardan iqtisodiy foydalanishning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini tashkil etish, bu esa foydalanimadigan qishloq xo’jaligi yerlarining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi va eng qimmatli qishloq xo’jaligi yerlarining sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatdi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, masofadan zondlash orqali olingen ma’lumotlar har bir sohada eng qulay manba bo’lib xizmat qiladi, chunki olinadigan ma’lumotimiz uchun kam vaqt sarflab ko’p natijaga erishish mumkin. Bu esa cheklangan resurslardan samarali foydalanishda ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa qishloq va suv xo’jaligi sohalarida masofadan zondlash materiallaridan foydalanish orqali karta tuzish ishlari ancha yengillashadi.

Xulosa qilib aytganda, Masofadan zondlash yordamida olingen ma’lumotlarning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, ular qishloq xo’jaligidagi bir qator muhim vazifalarni, jumladan, katta maydonlarda ekinlar holatini kuzatish imkonini beradi. Ushbu texnologiyadan foydalanish aholi sonining ko’payishi va ekin maydonlarining cheklanganligi, og’ir ekologik vaziyat tufayli 2050 yilga kelib qishloq xo’jaligi mahsulotlarini 70 foizga oshirish zarurati bilan bog’liq. Yerni masofadan turib zondlash dala tadqiqotlariga sarflanadigan xarajatlar va vaqt ni qisqartirish, ishlarni tezlashtirish, ma’lumotlarning ishonchliligi va to’liqligini oshirish, katta maydonlardagi qishloq xo’jaligi yerlarining holatini baholash imkonini beradi.

### **Foydalanimadigan adabiyotlar**

1. Sh. Shokirov , I. M . Musaev. Masofadan zondlash. Toshkent-2015
2. Wim H.Bakker, Lucas L.F.Janssen, Colin V.Reeves (2001), ITC: Principles of Remote Sensing.
3. Mirzaliev T. Kartografiya. - T.:Universitet, 2002. - 204 b.
4. Berlyant A. Kartografiya. - M.: Aspekt Press,2002. - 324 s.
5. Mirzaliev T., Allanaazarov O.R. Kartalarning informatsion sig’imi to’g’risida // O’zbekiston milliy atlasini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari. - T.,2009. -198-199
6. Карабеков У. А., Каримов В. Ш. У. Использование ГИС-технологий в городах строительство //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 257- 262.
7. Худайқулов Н. Ж. Масофадан зондлаш технологияларидан харита тузиш ишларида фойдаланиш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 217- 222

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 23-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000